QASHQADARYO VILOYATI KOSON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 16-iyun | 181-4-60-Q/25 | Koson tuman hokimligi

Qashqadaryo viloyat hokimining 2025-yil 14-maydagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-may “Hududlarda mikrosanoat markazlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 308-son qarori ijrosi haqidagi 238-4-0-Q/25-sonli qarori to’g’risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-maydagi “Hududlarda mikrosanoat markazlari faoliyatini tashkil etish chora- tadbirlari to'g'risida” gi 308-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonunining 6-, 21^1- moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Qashqadaryo viloyati hokimining 2025-yil 14-maydagi “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-maydagi “Hududlarda mikrosanoat markazlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 308-son qarori ijrosi haqida”gi 238-4-0-Q/25-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

O'zbekistan Respublikasi Prezidentining “2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2025-yil 17- yanvardagi PQ-12-son qaroriga muvofiq 2025-2026-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida mikrosanoat markazlarini (keyingi o'rinlarda - Mikrosanoat markazlari) barpo etish loyihalarining manzilli ro'yxati tasdiqlangani ma'lumot uchun qabul qilinganligi;

Mikrosanoat markazlari hududlarning ixtisoslashuvi va tadbirkorlik an'analarini (hududlarning drayveri), yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratishni, shuningdek, xorijiy davlatlar (Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya) tajribasi asosida qurish inobatga olingan holda ishlab chiqiladigan alohida konsepsiyaga muvofiq barpo etilishi;

Mikrosanoat markazlarida hunarmandchilik, tikuvchilik, poyabzalchilik, qandolatchilik va boshqa tadbirkorlik faoliyati turlari bilan shug'ullanadigan kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari (keyingi o'rinlarda - tadbirkorlik subyektlari) joylashtirilishi;

Mikrosanoat markazlariga ishlab chiqarishlarni joylashtirishda tabiiy gazga muqobil bo'lgan yoqilg'i turlaridan va energiya tejamkor texnologiyalardan (geliokollektor, issiqlik

nasosi, quyosh panellari, issiqlikni qayta tiklash- rekuperatsiya qilish va boshqalar) foydalanishga ustuvorlik berilishi;

Mikrosanoat markazlarining loyiha konsepsiyasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan O'zbekistan Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan loyiha tashkilotlarini jalb qilish orqali ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi;

Mikrosanoat markazlarining qurish uchun yer uchastkalari tasdiqlangan loyiha konsepsiyasi asosida ishlab chiqarish bino va inshootlarini tayyor holda qurish va keyinchalik ularga tadbirkorlik subyektlarini joylashtirish uchun tashabbuskor pudrat tashkilotlariga elektron onlayn-auksion savdolari orqali sotilishi;

Elektron onlayn-auksion savdolari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi PQ-12-son qarori bilan tasdiqlangan 2025-2026-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida mikrosanoat markazlarini barpo etish loyihalarining manzilli ro'yxati asosida o'tkazilishi;

Elektron onlayn-auksion savdolari g'olibi bo'lgan pudrat tashkilotlari bilan O'zbekistan Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda tuman (shahar) hokimliklari o'rtasida Mirkosanoat markazlarini tasdiqlangan loyiha konsepsiyasi asosida qurish va ularga tadbirkorlik subyektlarini joylashtirish shartlari (ijaraga (lizingga) berish, kredit, to'liq yoki bo'lib-bo'lib to'lash orqali sotish) to'g'risida uch tomonlama bitim tuzilishi;

Mikrosanoat markazlarini muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta'minlash bo'yicha xarajatlar mahalliy byudjetlarning qo'shimcha manbalari, shu jumladan, mahalliy byudjetlarga ushbu qarorga muvofiq yerlarni elektron onlayn auksion savdolari orqali sotishdan tushgan mablag'lar va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishi inobatga olinsin.

3. Tumanda mikrosanoat markazlarini barpo etish hamda ularga kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarini joylashtirish bo'yicha ishchi guruh tarkibi ilovaga asosan tasdiqlansin.

4. Quyidagilar ishchi guruhning asosiy vazifalari etib belgilansin:

O'zbekistan Respublikasi Prezidentining “2025-yilda aholi bandligini ta'm inlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2025-yil 17- yanvardagi PQ-12-son qaroriga muvofiq mikrosanoat markazlarini barpo etish uchun belgilangan hududlardan tuman hokimligi zaxirasidagi qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan bo'sh yer uchastkalarini tanlashi;

Mikrosanoat markazlarini loyiha konsepsiyasi asosida qurish uchun tanlangan yer uchastkalarining belgilangan tartibda elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarilishini tashkil etish;

Mikrosanoat markazlari pudrat tashkilotlari tomonidan belgilangan muddatlarda qurilishi ustidan doimiy monitoring yuritish;

Mikrosanoat markazlariga tadbirkorlik subyektlarini joylashtirish va ularning faoliyatini tashkil etishda yordam ko'rsatish;

Mikrosanoat markazlarini barpo etish loyihalari doirasida yangi ish o'rinlari yaratilishini nazorat qilish.

5. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari H.Nazarov, tijorat bank rahbarlari bilan birgalikda, Mikrosanoat markazlariga tadbirkorlarni jalb qilish, ularning biznes-rejalari asosida yangi loyihalarni ishlab chiqish, loyihalarga tijorat banklari tomonidan kredit ajratish va loyihalarni amalga oshirishda ko'maklashish;

mahalla bankirlari orqali bank xizmatlarini targ'ib qilish, tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash va yangi mijozlarni jalb qilish;

Mikrosanoat markazlarining ixtisoslashuvi va shart-sharoitlaridan kelib chiqib, boshqa hududlardagi ijobiy tajribalarni ommalashtirish choralarini ko'rsin.

6. Tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (Sh.Avazov) ishchi guruh bilan birgalikda:

har chorakda Mikrosanoat markazlari faoliyatini tashkil etishda yuzaga keladigan muammolarni joylarga chiqqan holda o'rganib borsin va ularni bartaraf etish bo'yicha boshqa mutasaddi tashkilotlar va idoralar bilan tegishli choralar ko'rsin;

Mikrosanoat markazlarining loyiha konsepsiyasida ishlab chiqarish maydonlari bilan bir qatorda shourum, omborxona, ofis va o'quv-ishlab chiqarish xonalari tashkil etilishini inobatga olish;

mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari ko'magida tadbirkorlik subyektlari ishlab chiqargan mahsulotlarni onlayn platformalar orqali sotishga ko'maklashish;

zarur hollarda Mikrosanoat markazlari hududida tadbirkorlik subyektlari bilan birgalikda ularning ixtisoslashuvi bo'yicha Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan dual ta'lim tizimini tashkil etish orqali kambag'al va ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o'qitish hamda ishga joylashtirilishga e'tibor qaratsin;

har chorakda Mikrosanoat markazlari faoliyatini tashkil etishda amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha tuman hokimiga axborot kiritib borsin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari H.Nazarov zimmasiga yuklatilsin.

Koson tuman hokimi **A.Boykaraev**

Koson tumani hokimining
2025-yil 16-iyundagi
181-4-60-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Tumanda mikrosanoat markazlarini barpo etish hamda ularga kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlarini joylashtirish bo‘yicha ishchi guruh
TARKIBI

T/r	F.I.SH	Lavozimi.
1.	Nazarov Hamza Quvvatovich	Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari-tuman iqtisodiyot va moliya bo’limi boshlig'i. ***Ishchi guruh rahbari***
2.	Djuraev Mirjaxon Baxtiyorovich	Tuman hokimining qurilish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari. ***Ishchi guruh rahbari o‘rinbosari***
3.	Do’stmurodov Jobir Bobomuratovich	Tuman hokimining o'rinbosari - tuman investitsiyalar, sanoat va savdo bo’limi boshlig'i
4.	Avazov Shuxrat	Tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo’limi boshlig'i
5.	Narzullayev Doston	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida tuman hududiy nazorat qilish inspeksiyasi bo’limi boshlig'i
6.	Lavozimiga ko’ra	Tuman tijorat banklari raxbarlari
7.	Xayitov Uktam	“Kadastr agentligi davlat kadastrlari palatasi” tuman bo’limi boshlig'i